YUSUPOV Kobil Xakimboyevich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Malaka oshirish markazi
Namangan viloyati mintaqaviy filiali
Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari kafedrasi
katta o‘qituvchisi
iphone12x12@icloud.com

XIX–XX ASRLARDA HINDISTONDA MADANIY HAYOT VA HADIS ILMI RIVOJI

КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ И РАЗВИТИЕ НАУКИ О ХАДИСАХ В ИНДИИ В XIX–XX ВЕКАХ

CULTURAL LIFE AND THE DEVELOPMENT OF HADITH STUDIES IN INDIA IN THE 19TH-20TH CENTURIES

Annotatsiya: *Maqolaning asosiy maqsadi, 19-20-asrlarda Hindistonda madaniy hayot va hadis ilmining rivojlanishini o‘rganish, shu davrning taniqli hanafiy olimi Zafar Ahmad Tahonaviy (vaf. 1394/1974) faoliyatini tahlil qilishdir. Shuningdek, Hindistondagi ilmiy maktablar va ularning o‘zaro aloqalari, Devbanddagi “Dorul ulum” maktabi olimlarining hadis ilmiga qo‘shgan hissalari va dunyo miqyosidagi olimlarning ularni yuqori baholagan fikrlari ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Hindiston, Tahonaviy, Muhaddis, Dorul ulum, hadis, madrasa, Devband, hanafiy.*

Аннотация: *Основная цель статьи — изучение культурной жизни и развития науки о хадисах (хадисоведения) в Индии в XIX–XX веках, а также анализ деятельности выдающегося ханафитского ученого того периода Зафара Ахмада Таханави (ум. 1394/1974). Кроме того, в статье рассматриваются научные школы Индии и их взаимосвязи, вклад ученых школы «Даруль-улум» в Деобанде в науку о хадисах и высокая оценка их трудов со стороны ученых мирового уровня.*

Ключевые слова: *Индия, Таханави, мухаддис, Даруль-улум, хадис, медресе, Деобанд, ханафитский.*

Abstract: *The main purpose of this article is to study the cultural life and the development of hadith studies in India during the 19th-20th centuries, and to analyze the activity of the prominent Hanafi scholar of that period, Zafar Ahmad al-Tahhanawi (d. 1394/1974). The article also examines the scholarly schools in India and their interrelations, the contributions of the scholars from the “Darul Uloom” school in Deoband to the science of hadith, and the high esteem in which they were held by scholars worldwide.*

Keywords: *India, Tahhanawi, Muhaddith, Darul Uloom, hadith, madrasa, Deoband, Hanafi.*

KIRISH

Maqolaning asosiy obyekti bo‘lgan “E’lo as-sunan” asarining muallifi, muhaddis va hanafiy olimi Zafar Ahmad Tahonaviy (vaf. 1394/1974) Hindistonda yashagan davrida ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotning murakkab sharoitlariga duch keldi. Shunga qaramay, Tahonaviy va boshqa muhaddislar Hindistonda islom dinini yot g‘oyalardan saqlab qolishga katta e’tibor qaratdilar. Ular hadis ilmini rivojlantirishni o‘zlarining asosiy maqsadi deb bilib, ilmiy uslubda asarlar yaratdilar.

“Dorul ulum” maktabi, ayniqsa hadis ilmiga bo‘lgan e’tibori bilan tanildi va uning yuksalishida asoschisi Qosim Nanutviy (vaf. 1297/1880) ning hissasi katta bo‘ldi. Ushbu maktabda dars berayotgan ko‘plab o‘qituvchilar tariqat vakillari bo‘lib, bu xususiyat nafaqat o‘qituvchilarga, balki talabalar orasida ham kuzatilgan. Hindiston olimlari ko‘pincha o‘z ilmiy faoliyatlarida, asosan, yurtimizdan chiqqan muhaddis va faqihlarning asarlarini o‘rganib, ixtilofli masalalarda ularning fikrlariga murojaat qilganlar. O‘qitish jarayonida ularning asarlariga tayangan holda, ilmiy va diniy fikrlar aniq va puxta shakllangan.

ASOSIY QISM

Zafar Ahmad Tahonaviy yashab o‘tgan 19-20 asrlarda Hindiston Britaniya mustamlakachiligi ostida edi. Inglizlar “Sharqiy Hindiston kompaniyasi” [4:63-64] orqali avtonom davlat maqomi va tijorat imtiyozlari tufayli Hindistonning ichki ishlariga aralashdilar. 1857-yilda ma’muriyatga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘oloni barbod bo‘lgach, inglizlar boshqaruvni to‘liq qo‘lga oldilar [1:109].

Mustamlakachi inglizlar qo‘lidagi mazkur kompaniya Hindistonning siyosiy, va ijtimoiy muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, hind savdogarlari soliq to‘lash bilan birga kompaniya tovarlari bilan raqobatlasha olmadi [11:839].

Natijada, inglizlar kompaniya yordamida xalqni kundan-kunga qashshoqlashtirib, mamlakatda ishsizlikni ko‘paytirdi.

Britaniyaning diskriminatsiya siyosati nafaqat g‘arbliklar va hindlarga balki, mahalliy xristiyan va boshqa din vakillariga ham salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Britaniya davlat xizmatchilariga yuqori lavozimlar berildi va ularning maoshlari doimiy ravishda oshirildi. Mahalliy aholi esa, o‘rta darajadagi lavozimlardan ham mahrum etildi. Qolaversa, xalqning dini, urf-odat va an’analari kamsitilishi Hindistonda ularga nisbatan katta norozilik kayfiyatini uyg‘otdi. Bu holat 1857-yil 10-maydagi qo‘zg‘olon bilan namoyon bo‘ldi [10:28].

Britaniyaning Panjob gubernatori Jon Lourens (vaf. 1296/1879) ingliz qo‘shinini to‘pladi va qo‘zg‘olonni zo‘ravonlik bilan bostirdi. Lourens 1857 yilda poytaxt Dehlini butunlay egallab oldi va katta vahshiyliklar qilib, xalqdan qasos oldi [13:303]. Qo‘zg‘olon boshida muvaffaqiyatli bo‘lib tuyulgan bo‘lsa-da, bir muncha vaqt o‘tib qo‘zg‘olon inglizlar foydasiga aylandi, chunki, u bir vaqtning o‘zida barcha mintaqalarda boshlanmadi. Shuningdek, janubiy hind qozilari, xalqi, Haydarobod amaldorlari va sikhlari ular (inglizlar)ga yon berdi [7:23].

Mustamlakachi inglizlar boshqaruviga qadar Hindistonda musulmon, hindu yoki shia xalqlari hind-turk hukmdorlari boshqaruvi ostida teng bo‘lgan. Hamma odamlar xavfsiz yashagan. Biroq, inglizlar hokimiyat tepasiga kelganida, vaziyat butunlay o‘zgardi [4:82].

Hindistonning mustaqillik urushidan keyingi ijtimoiy-siyosiy ahvoli yangidan diniy muassasa va tashkilotlar ochish zaruratini tug‘dirdi [3:11]. Bu muassasalarning ko‘proq ta’limga yo‘naltirilganiga sabab, har jihatdan ulardan farqli bo‘lgan Britaniya ma’muriyati musulmonlarning diniy ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmaganini taxmin qilish mumkin.

Avtonom ma’muriyat tashkil etish maqsadida Hindiston musulmonlari tomonidan 1906-yil 30-dekabrda Dakka shahrida “Hindiston musulmonlari uyushmasi”ga asos solindi [3:18]. O‘z mamlakatini ingliz mustamlakachiligidan qutqarishga intilgan Gandi ham bu maqsadga erishish uchun jamiyatdagi barcha tengsizliklarga barham berish zarurligini ta’kidladi. Buni yodda tutgan holda, u musulmon, hindu, parsislar, mestizolar (hind-inglizlar) va yahudiylar kabi turli etnik va diniy guruhlar o‘rtasida to‘liq sevgi, hamkorlik va totuvlikka erishish uchun kurashdi. Ushbu sa’y-harakatlar tufayli 1937 yilda Britaniya hukumatining qabul qilinishi bilan Hindistonning yangi Konstitutsiyasi kuchga kirdi. Ammo, Hindiston mustaqil maqomga ega bo‘lmadi. Biroq, 1947-yil 15-avgustda Musulmonlar Ligasi va Milliy Kongress tomonidan Hindiston yarimoroli ikki mustaqil qismga: Hindiston va Pokistonga bo‘linib, amalda mustaqil bo‘lib qolishi qabul qilindi [13:541].

Hindiston aholisi azaldan turli xil g‘oya va harakatlar muhitida yashab kelgan. Shu sababli, u yerda yashovchi musulmonlarning bir xil tuzilishga ega bo‘lishlari aqlga sig‘mas edi. Chunki, umumiy diniy zamin va fikr birligini o‘rnatish oson bo‘lmadi. Biroq, Imom Rabboniy (vaf. 1033/1624) va Shoh Valiyulloh Dehlaviy (vaf. 1176/1762) ta’siri katta bo‘lgan. Shuning uchun, ulardan keyin kelgan barcha maktablar o‘zlarining intellektual poydevorlarini Dehlaviy asosida qurgan [12:220]. Shuningdek, u yerda yashovchi aholi ham uning mazhabiga muvofiq amal qilgan.

Mazkur qo‘zg‘olon hind musulmonlarini qiyin ahvolga olib kelgan bo‘lsa-da, 1857-yildan so‘ng ilmiy, ma’rifiy izlanishlar sezilarli darajada jonlandi. Bu davrda mavjud maktab va madrasalardan tashqari kollej, institut, universitetlar hamda ilmiy markazlar ochildi. O‘zligini mustamlakachi inglizlardan himoya qilmoqchi bo‘lgan musulmonlar ilmiy faoliyatga yana yuzlandi [1:104].

Zafar Ahmad Tahonaviy faoliyat olib borgan davrda mavjud bo‘lgan yetakchi ilmiy maktablar va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu muhim maktablardan biri sifatida “Dorul ulum” Universiteti alohida e’tiborga molik bo‘lib, mazkur ilmiy muassasa yetishtirgan ko‘plab olimlar orqali Hindiston yarimorolida hadis ilmining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan.

Hindistonning Britaniya mustamlakasiga aylanishi va islom ta’lim tizimi asta-sekin G‘arb ta’lim tizimi va o‘quv dasturi bilan almashtirilishi natijasida musulmonlar o‘zlarining islomiy o‘zliklari va madaniyatini himoya qilish uchun ba’zi muqobil variantlarni ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldilar. Shu maqsadda hind olimlari madrasa yoki “Dorul ulum” kabi faqat islom dini bilimlari

ISSN 2181-9572

o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini tashkil etishga qaror qilib, 1866-yil 30-mayda [5:10] Devbandda “Dorul ulum” ta’lim maskani ochildi [2:13].

Devband Hindistonning Utar-Pradesh shtatining Saharonpur tumanidagi islomiy bilimlar bilan mashhur bo‘lgan shahar edi. “Hindning azhari” deb nom olgan “Dorul ulum” qisqa vaqt ichida butun islom olamiga obro‘sini yetkaza oldi [12:220].

Musulmonlar 1857-yilda Hindistondagi qo‘zg‘olondan keyin hukumat tomonidan bosim ostida qoldi. O‘zligini va borligini saqlab qolishga intilayotgan musulmonlar muntazam ravishda ichki ishiga ayniqsa, ta’limga oid tadqiqotlatga e’tibor qaratishlari kerak, deb hisoblagan bir guruh olimlar dastlab Devbanddagi Chatta nomli masjidda faoliyat boshladilar. Keyinchalik, 1866-yil 30-mayda Muhammad Qosim Nanutviy (vaf. 1297/1880) va Rashid Ahmad Ganguhiy (vaf. 1323/1905) “Dorul ulum”ga asos solishdi. Mohiyatan an’anaviy ta’lim tizimini o‘zlashtirgan “Dorul ulum” Universiteti o‘sha paytgacha Hindistonda mashhur bo‘lgan uch xil (Dehli, Laknov, Haydarobod) islomiy ta’lim an’analarini birlashtirib, o‘rtasida muvozanat o‘rnatishga harakat qildi [10:14-15].

“Dorul ulum” maktabining asoschisi Qosim Nanutviy 1880-yili 48-yoshida vafotidan keyin Rashid Ahmad Ganguhiy 1905-yilgacha boshqardi. Uning vafotidan keyin esa nazorat Shayxul Hind Mahmud Hasan Devbandiyga o‘tdi. U “Dorul ulum”ning birinchi o‘quvchisi bo‘lib, ta’limni tugatganidan keyin o‘n besh yil bosh muderris bo‘lib ishladi. 1905-yildan 1920-yil vafotiga qadar rektor bo‘lib ishladi [2:66]. Qayd etish lozimki, “Dorul ulum” o‘z davrida ham moddiy, ham ta‘lim sifati jihatidan yuksaldi. Qisqa vaqt ichida butun islom olamiga mashhur bo‘lgan bu dargohga ko‘plab joylardan talabalar kela boshlagan.

Shayxul Hind tomonidan amalga oshirilgan eng muhim qadamlardan biri zamonaviy ta’limni ifodalovchi Aligarh kolleji bilan o‘qituvchi va talabalar almashinuvi bo‘yicha shartnoma tuzish bo‘ldi. Shunday qilib, ikki o‘quv dargohi yarashtirildi va Aligarh kollejida diniy bilmlarning yetishmasligi, “Dorul ulum”da aniq fanlar hamda ingliz tilining o‘rni to‘ldirildi [3:11].

“Dorul ulum”ning boshqa ta’lim maskanlaridan ajratib turadigan yana bir jihati shundaki, bu yerda dars berayotgan ko‘plab o‘qituvchilar, ayniqsa, katta ustozlar ham so‘fiy, ham tariqat vakillari bo‘lgan. Bu xususiyat nafaqat o‘qituvchilarga xos balki, talabalar orasida ham mavjud edi. Biroq, Devband olimlari tasavvufga an’anaviy taqlid yo‘li bilan emas, balki ta’lim-tarbiya, yashash intizomi sifatida qarashgan [12:221]. Shu sabab, ular so‘fiylik ta’limotini umumiy o‘quv dasturiga kiritishgan.

“Dorul ulum” Universiteti 1857-yildan keyin Hindistondagi rolini inobatga olib aytish mumkinki, nafaqat ta’lim muassasasi, balki mustamlakachilikdan xalos bo‘lish uchun fikr va harakat markazi sifatida ham ko‘riladi.

Devbanddagi “Dorul ulum” maktabidan yetishib chiqqan ulamolar hadis ilmiga doir o‘z ona tili bo‘lgan urdu, fors bilan bir qatorda arab tilida yozgan qimmatli asarlari tufayli islom olamida shuhrat qozongan [10:15]. Bulardan Mavlono Qosim Nanutviy (vaf. 1299/1880), Abdulhay Laknaviy (vaf. 1304/1886), Mavlono Anvar Shoh Kashmiriy (vaf. 1353/1934), Hakimul Umma Ashraf Ali Tahonaviy (vaf. 1362/1943), Shabbir Ahmad Usmoniy (vaf. 1369/1949), Husayn Ahmad Madaniy (vaf. 1377/1957), “E’lo as-Sunan” asarining muallifi Zafar Ahmad Tahonaviy kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Hadis ilmining rivojlanish tarixiga nazar tashlaganda, ushbu soha turli bosqichlarda bir mintaqadan boshqasiga ko‘chib borganini kuzatish mumkin. Dastlab Hijoz hududi hadis ilmining asosiy markazi sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, keyinchalik bu ilmiy an’ana Iroq, Misr va Movarounnahr kabi yirik ilmiy markazlarga ko‘chgan. So‘nggi to‘rt asrlik davr mobaynida esa Hindiston hadis ilmi taraqqiyoti va tahqiqot markazlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu holat ko‘plab hadisshunos olimlar tomonidan e’tirof etilgan.

Jumladan, muhaddis Muhammad Zohid Kavsariy (vaf. 1371/1952) “Maqolot al-Kavsariy” kitobida shunday deydi: “Hindiston diyorida hijriy X (milodiy XVI) asrning ikkinchi yarmidan beri hadis sohasi rivojlanib keladi. Hind olimlari bu ilmni yuksalishiga to‘laqonlik yuzlandilar. Ta’kidlash joizki, hadis ilmiga oid olib borgan ilmiy tadqiqotlari ulkan hamjni tashkil etib, ulardan olti hadis to‘plamlari va boshqa asarlarga hukmga doir jihatlari, roviylar haqidagi ma’lumotlarni tadqiq etib sharhlar va hoshiyalar yozishgan. O‘z kuchini yo‘qotmay hamon kelajak avlodga qoldirayotgan bebaho asarlari tahsinga loiq, albatta” [5:73].

Sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga kirib borganidan so‘ng bu o‘lka ilm markazlaridan biriga aylandi. Shundan so‘ng bu o‘lkada turli sohalarda xususan, hadis borasida minglab olimlar yetishib chiqishida asos bo‘lgan “Ad-dars an-Nizomiy” nomli ta’lim tizimi joriy bo‘ldi [12:347].

Mazkur ta’lim dasturining asoschisi Mulla Nizomiddin Saholaviy (vaf. 1161/1748) bo‘lib, u “Bahrul ulum” nomi bilan tanilgan hamda “rasoili al-arkon”, “favatih ar-rohmut sharh musallam as-subut” kabi asarlar muallifi alloma Abdul Ali (vaf. 1225/1810)ning otasi hisoblanadi. Mulla Nizomiddin Shayx G‘ulom Naqshband Laknaviy, Hofiz Omonilloh Banorasiy kabi asrinig mohir ustozlaridan dars olgan. So‘ng Sahola qishlog‘ida “Farankiy” madrasasida ta’lim berish bilan shug‘ullangan. Mazkur madrasa o‘zi joriy qilgan ta’lim asosida o‘qitilgani uchun davrining ko‘zga ko‘ringan ilmiy maktablardan biri bo‘lib tanilgan [12:348].

Mulla Nizomiddin tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim dasturi o‘zining samaradorligi bilan ajralib turgani bois, butun Hindiston bo‘ylab ilmiy muassasalarda keng joriy etilgan. Natijada, “ad-Dars an-Nizomiy” dasturi ingliz mustamlakachilari Hindistonga kirib kelguniga qadar asosiy diniy-ilmiy ta’lim tizimi sifatida faoliyat yuritgan.

Hadis fani bo‘yicha ta’lim dasturida qabul qilingan asosiy adabiyotlar orasida Valiyuddin Iroqiy Tabriziy (vaf. 741/1340)ning “Mushkot al-masobih”, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (vaf. 256/870)ning “Sahih al-Buxoriy”, Muslim ibn Hajjoj Naysoburiy (vaf. 261/875)ning “Sahih al-Muslim”, Abu Dovud Sulaymon ibn Ash’as (vaf. 275/888)ning “Sunani Abu Dovud”, Abu Iso Termiziy (vaf. 279/892) “Sunani Termiziy”, Abu Abdurahmon Ahmad ibn Shu’ayb Nasoiy (vaf. 303/915)ning “Sunani Nasoiy”, Abu Abdulloh Muhammad ibn Moja (vaf. 273/886)ning “Sunani Ibn Moja”, Abu Iso Termiziyning “Kitob ash-shamoil”, Abu Ja’far Tahoviy (vaf. 321/933)ning “Sharh maoniy al-osor”, Molik ibn Anas (vaf. 179/795)ning “Al-muvatto”, Muhammad ibn Hasan Shayboniy (vaf. 189/805)ning “Al-muvatto”, Hofiz ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 852/1448)ning “Sharh Nuxbat al-fikar” asarini sanab o‘tish mumkin.

“Nizomiy” ta’lim tizimi deyarli barcha asosiy diniy-ilmiy sohalarni qamrab olgan bo‘lib, uning tarkibida 72 ta asosiy darslik mavjud. Ushbu darsliklardan 11 tasi fiqh, 12 tasi esa hadis ilmlariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu ikki fan boshqa sohalarga nisbatan eng katta sanoqni tashkil etadi. Bu esa hadis va fiqh ilmlarining Hindiston ulamolari diqqat markazida bo‘lganini ko‘rsatadi. Ushbu e’tibor natijasida Hind diyorida ko‘plab yetuk muhaddislar yetishib chiqqan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ular O‘zbekistondan yetishib chiqqan olimlarning 17 ta asarini asosiy manba sifatida dars jarayonlarida keng qo‘llaganlar.

Hindiston hududida ayrim toifalar tomonidan hanafiy mazhabi vakillarining hadisdan ko‘ra shaxsiy ijtihodga ko‘proq tayanishi haqidagi da’volar ilgari surilgan. Ularning fikricha, hanafiy faqihlar ba’zi holatlarda hadis qoidalarini chetlab o‘tgan holda mustaqil fikr yuritgan. Ushbu da’volarga javoban hanafiy ulamolar azaldan hadis ilmi taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratgan, bu borada ilmiy asarlar yaratgan hamda dars mashg‘ulotlari tashkil etganlar.

Xususan, “Dorul ulum”ning XX asr oxiriga kelib hadis ilmi sohasida qilgan sa’y-harakatlari diqqatga sazovordir. 1999-yilda ushbu muassasaning o‘quv ishlari bo‘yicha mas’uli Ali Bajnuriy universitet ilmiy kengashiga hadis ilmi bo‘yicha maxsus mutaxassislik bo‘limi tashkil etish taklifini bildirdi. Mazkur taklif kengash tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, rasmiy qaror qabul qilindi. Qarorning ijrosini ta’minlash vazifasi universitet ilmiy kengashi a’zosi va Hindiston Ulamolari Kengashi raisi Sayyid As’ad Madaniy tomonidan hadis ilmi mutaxassisi Ne’matulloh A’zamiy zimmasiga yuklatildi [8:6].

Muhaddis olim Ne’matulloh A’zamiy yangi tashkil etilgan yo‘nalishning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ta’lim dasturi doirasida o‘qitiladigan adabiyotlar ro‘yxatini tizimli tarzda ishlab chiqqan. Unga muvofiq, universitetni tamomlagan talabalar orasidan har yili ushbu yo‘nalishga besh nafar talaba qabul qilinadi hamda ular ikki yil davomida tahsil olib oladilar.

Mazkur maxsus yo‘nalish bo‘yicha ta’lim jarayoni yetti bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqichda talabalar uchun mo‘ljallangan aniq o‘quv manbalari va ilmiy faoliyat yo‘nalishlari belgilangan.

1-bosqichda talabalar Abu Amr Usmon ibn Salohiddin Shahrizuriy (vaf. 643/1245)ning “Al-Muqaddima” hamda Jaloliddin ibn Abu Bakr as-

ISSN 2181-9572

Suyutiy (vaf. 911/1505)ning “Tadrib ar-roviy” asarlarini o‘rganadilar.

2-bosqichda doktor Mahmud ibn Ahmad Tahhon (vaf. 1444/2022)ning “Usul at-taxrij va dirosat al-asanid” asarining birinchi bobini tahlil qilish orqali hadis taxriji va sanad tahliliga kirishadilar.

3-bosqichda ayni muallifning yuqoridagi asarining ikkinchi bobi, shuningdek, Ne’matulloh A’zamiy (vaf. 1443/2021) va Abdulloh Ma’rufiy tomonidan tuzilgan o‘quv dasturi asosida darslar olib boriladi.

4-bosqichda Abdulhay Laknaviy (vaf. 1304/1887)ning “Ar-Rof vat-takmil fil jarh vat-ta’dil” hamda Ne’matulloh A’zamiyning “Madaris ar-ruvat wa mashahiru asatizatihim ma’a talamizatihim wa tabaqotihim” asarlari asosida jarh va ta’dil ilmining tatbiqi o‘rgatiladi.

5-bosqichda Ne’matulloh A’zamiyning “Al-fava’id al-muhimma fi mukhtalaf al-hadis” asari va Zafar Ahmad Tahonaviyning “E’lo as-sunan” asaridan tanlab olingan boblar asosida hadislar tahlil qilinadi.

6-bosqichda har bir talaba uchun ustozlar tomonidan maxsus tanlab olingan 300 hadisni yod olish majburiy etib belgilanadi.

7-bosqichda esa talabalar ustozlar tomonidan belgilangan mavzularda ilmiy tadqiqot olib boradilar.

Hadis ilmi mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar mazkur yetti bosqichdan iborat o‘quv jarayonini bosib o‘tadilar. Dastur yakunida ularga ustozlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatiladi. Ushbu bosqichlar talabalar uchun keyingi ilmiy faoliyatlarida nazariy va amaliy tayyorgarlik bosqichi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, mutaxassislik doirasida yodlash uchun belgilangan hadislar sonining nisbatan kamligi hamda hadis ilmi manbalarining faqat ayrim boblarini qamrab olgan topshiriqlar o‘quv dasturining umumiy ko‘lamda kirish darajasida va yo‘naltiruvchi xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur yo‘nalishdagi talabalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardan biri 2004-yil bitiruvchilari imom Termiziyning “Sunan”nida “Hasan”, deb keltirgan hadislarni ajratib, olimlar tomonidan unga bildirilgan salbiy fikrlarga raddiyalar bergan. Xususan, Imom Zahabiyning Termiziyga bildirgan ayrim qarashlaridan keyingilar uchun ham Imom Termiziyga nisbatan “Hadislarni aniqlashda yengiltaklik qilgan”, degan salbiy fikrlar bildirish kayfiyatini uyg‘otgan. Shundan kelib chiqib, bitiruvchi talabalar Imom Temiziyning dalilini qo‘llab quvvatlovchi fikrlarni olg‘a surdilar. Ular yetuk muhaddislarga qarshi fikr bildirish ulkan ilm talab qilishini bayon qilib, olimlarning sha’niga doim iliq munosabatda bo‘lish kerakligini ta’kidladilar [8:7].

Mazkur ilmiy tadqiqot 2004-yilda “Al-hadis al-hasan fi jome at-Termiziy” nomi bilan Devbanddagi “Akademiya shayxul hind” nashriyotida chop etilgan. Unga “Dorul ulum” rektori Marg‘uburahmon hamda Ali Bajnuriy, Ne’matulloh A’zamiy, Habiburahmon, Abdulloh Ma’rifiy kabi ustozlar taqriz yozib bergan.

Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardan yana biri 2005–2006 yil bitiruvchilari tomonidan imom Termiziyning “Sunan”nida “Hasan G‘arib”, deb keltirgan hadislarni jamlab, olimlarning unga bo‘lgan qarashlarini bayon qilganlar. Unda Termiziyning mazkur iboradan ko‘zlagan maqsadini ochib berilgan [6:13-14].

Tadqiqot Ne’matulloh A’zamiy, Habiburahmon, Abdulloh Ma’rifiy kabi hadis ilmi ustozlari ilmiy tahbarligi ostida yozilib, 2006-yil “Hasan G‘arib fi jome at-Termiziy” nomi bilan “Akademiya shayxul hind” nashriyoti tomonidan ikki jildda rektor Marg‘uburahmonning taqrizi ostida chop etilgan.

“Dorul ulum” Universitetining hadis ilmi mutaxassisligi talabalari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlardan yana biri 2008-yil bitiruvchilari imom Termiziyning “Sunan”nida “Hasan Sahih”, deb keltirgan hadislarni aniqlab, Termiziyning mazkur iboradagi maqsadini yoritganlar [7:15].

Mazkur tadqiqot hadis ilmi ustozlari Ne’matulloh A’zamiy, Abdulloh Ma’rifiylar ilmiy tahbarligi ostida yozilib, 2009-yil “Hasan Sahih fi jome at-Termiziy” nomi bilan “Akademiya shayxul hind”da nashriyot mudiri, “Dorul ulum” ilmiy kengash a’zosi Badriddin Ajmal Ali Qosimiy so‘z boshi va rektor Marg‘uburahmon taqrizi ostida uch jildda chop etilgan.

Mazkur ilmiy izlanishlar Imom Termiziyning hadis ilmidagi mavqei va uning “Sunan” asarining hadisshunoslikdagi o‘ziga xos o‘rnini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda yosh tadqiqotchilar ustozlar rahbarligida muhim ilmiy xulosalarga ega bo‘lganlar.

XULOSA

Hindistonda hukm surgan siyosiy jarayonlar o‘sha yerda yashovchi musulmonlarni ijobiy faoliyatga undab, ilmiy maktablarning asos solinishiga turtki bo‘ldi. “Dorul ulum” maktabi 1857-yildan keyin Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’sir etib, nafaqat ta’lim muassasasi, balki mustamlakachilikdan xalos bo‘lish uchun harakat markazi sifatida ham ahamiyat kasb etdi. Maktabning yuksalishida asoschisi Qosim Nanutviy, undan keyingi yetuk muhaddislar Rashid Ahmad Ganguhiy va Shayxul hind Mahmud Hasanning xizmati katta bo‘ldi.

“Dorul ulum” o‘zining ilmiy yuksalishida ko‘plab ijobiy xususiyatlarga ega bo‘lib, bunda maktabning o‘qituvchilari va talabalar orasida tariqat vakillarining ko‘pligi alohida e’tiborga molikdir. Bu ham ularning boshqa ta’lim markazlardan ajratib turadigan jihati sanaladi.

Devbanddagi “Dorul ulum” maktabining yetuk ulamolari tomonidan hadis ilmi yo‘nalishida urdu, fors va ayniqsa arab tillarida yaratilgan ilmiy asarlar nafaqat mintaqaviy darajada, balki butun islom olamida tan olinib, ularning ilmiy salohiyati va diniy-ma’rifiy merosining keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

“Dorul ulum” ilmiy dargohida hadis ilmiga katta e’tibor berildi. Ularga ajratilgan dars soati boshqa maktablardan farqli o‘laroq qisqartirilmagan, uzoq vaqt davomida chuqur va keng ko‘lamda o‘rgatilgan. Bu borada Hind olimlari yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislarning asarlarini o‘z faoliyatlarida asos qilib olib, ilmiy merosni rivojlantirdilar. Ta’lim jarayoni hamda ixtilofli masalalarda ularning xulosalari yakuniy qaror sifatida qabul qilindi.

Hind olimlari tomonidan Hadis ilmi mutaxassisligi bo‘yicha ishlab chiqilgan yetti bosqichli o‘quv dasturi talabalarga ushbu fan sohasida zarur bo‘lgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Har bir bosqichda tanlangan manbalar orqali talabalar klassik va zamonaviy hadisshunoslik asoslarini puxta o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. O‘quv jarayonining yakuniy bosqichida ilmiy-tadqiqot ishlarining amalga oshirilishi esa dastur ilmiy va metodik tayyorgarlikka alohida e’tibor qaratganini ko‘rsatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Azmi Özcan, Hindistan’da İngiliz hâkimiyeti ve ulemânın tavrı. //Dîvân İlmî Araştırmalar sy. 17 (2004/2)
2. Baraniy, Doktor Abdurahmon. Ulamau Devband va xadamatuhum fi ilm al-hadis. –Devband: Akademiya shayxul hind, 2011.
3. Birishik Abdulhamid. Hint alt-kıtasında İslâm araştırmalarının dünü bugünü: Kurumlar, ilmî faaliyetler, şahıslar, eserler. //Dîvân İlmî Araştırmalar, p. 17 (2004/2)
4. Durmuş Bulgur, Ticaretten sömürgeciliğe XIX. yüzyılda Hindistan ve İngiliz hâkimiyeti. //Dîvân İlmî Araştırmalar sy. 17 (2004/2)
5. Kavsariy, Muhammad Zohid. Maqolot al-Kavsariy. –Qohira: Dor as-salam, 2015.
6. Mualliflar jamoasi. Hasan G‘arib fi jome at-Termiziy. –Devband: Akademiya shayxul hind, 2006.
7. Mualliflar jamoasi. Hasan Sahih fi jome at-Termiziy. –Devband: Akademiya shayxul hind, 2009.
8. Mualliflar jamoasi. Al-hadis al-hasan fi jome at-Termiziy dirosat va tatbiq. –Devband: Akademiya shayxul hind, 2004.
9. Nadaviy, Valiyuddin. al-Imom Abdulhay Laknaviy. –Bayrut: Dor al-qalam, 1995.
10. Nanutviy, Muhammad Ya’qub. Al-imom Muhammad Qosim Nanutviy kama roaytuhu. –Devband: Akademiya shayxul hind, 2011.
11. Orhan Doğan, Aysel Erdoğan. XIX. Yüzyılda İngiliz Sömürgeciliğinde Hindistan’ın Yeri ve Önemi. //Gaziantep University Journal of Social Sciences, 16 (3) (2017)
12. Usmoniy, Muhammad Taqi. Maqolot va buhus. –Damashq: Dor al-qalam, 2021.
13. Yusuf Hikmat Bayur. Hindiston tarixi. –Anqara: Turk tarih kurumu basimevi, 1950.